

**MAQSUD SHAYXZODA– SHOIR, DRAMATURG,
ADABIYOTSHUNOS**

Toshkent davlat taransport universiteti

Boyxurozov Diyorbek Sherzod o'gli

Annotasiya: Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan.

Kalit so'zlar: asarlar, dramaturg, tanqidchi, adabiyotshunos, iste'dod sohibi, she'rlar, "Toshkentnoma", Forobiy qabristonida dafn etilgan.

Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma erda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagi quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi (Maqsud Shayxzoda haqida xotiralar sahifasidan).

Maqsud Shayxzoda– shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Bokudagi dorilmualliminni tugatgan. 1927 yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928 yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. O'rta Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa muddat o'qigani (1928)dan keyin "Sharq haqiqati", "qizil O'zbekiston", "yosh leninchi" gazetalari (1932), "Guliston" jurnali tahririyatlarida xizmat qilgan. Boku pedagogika institutini tugatgan (1934). Toshkentda til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan. 1938 yildan Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutida o'qituvchi.

"O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "uchinchi kitob" (1934), "yangi devon" (1937), "jang va qo'shiq", "ko'ngil deydiki..."(1943), "o'n besh yilning daftari" (1947), "yurt she'rlari" (1948), "yillar va yo'llar" (1961), "she'rlar" (1964) va boshqa



she'riy to'plamlari nashr etilgan. U Doston janrida "meros", "tuproq va haq" (1936), "ovchi qissasi", "Iskandar Zulqarnayn" (1940), "o'n birlar" (1943), "Ahmadjonning hikmatlari", "uchinchi o'g'il" (1944), "Nurmat otaning tushi" (1947) singari liro-epik asarlar yozdi. Shayxzoda qofiyaning yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, o'zbek she'riyatiga yangi vazn va shakl ko'rinishlarini olib kirgan. Shoir ijodiga xos bu tamoyil uning, ayniqsa, "Toshkentnoma" (1958) lirik dostonida yorqin ifodasini topgan.

"Jaloliddin Manguberdi" (1944), "Mirzo Ulug'bek" (1961) tragediyalari, bir qancha ilmiy maqolalar, monografiyalar ("genial shoir", 1941) muallifi. U SH. Rustavelining "yo'lbars terisini yopingan Pahlavon" (hamkorlikda) eposi, u. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she'rlari, "mis chavandoz" dostoni, "Mosart va Saleri" tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she'rlari va "Kavkaz asiri" dostonini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Shayxzoda 1952 yilda hibsga olinib, 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan va 1954 yilda ozod etilgan.

Maqsud Shayxzoda 1967 yilning 19 fevralida vafot etgan. Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan. "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan (2001). Toshkentdagi ko'chalardan biri Shayxzoda nomi bilan atalgan.

U – o'lgan sharobdek beparvo, bejon,
Na mastlik keltirar va na hayajon.
Holbuki, bir chog'lar erkin parvozda
Elga sherik bo'lib o'ynab yugurgan,
Quyunning bo'lagi, ulkan miqyosda –
Bepoyon cho'llarda qumlar sovurgan.
Yoki oqshom payti shabboda bilan
Chinorlar tagida qizlarni o'pgan,
Daralar ichida yonganda gulxan,
Bir oz isingani olovga chopgan.
Bu bari bo'lgan gap. Bari haqiqat...



Ammo eslanadi tushlarda faqat.
Sandiqda bo'g'ilgan bir parcha havo
Bir chog'lar erkinman deb qilgan da'vo...
Shunday: tinib qolgan bir kosa suvda
Sellarning, soylarning afsonasi bor,
O'ngib, xira bo'lgan siniq ko'zguda
Xushro'ylar husnining vayronasi bor,
Bugungi sukutda, tinglasang, dildor,
Kechagi to'ylarning taronasi bor.

Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma erda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagi quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi (Maqsud Shayxzoda haqida xotiralar sahifasidan).

Shayxzoda Pushkinning "mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "juda soz" dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning "Hamlet", "Romeo va Juletta" tragediyalari va sonetlarini, Nozim Xikmatning she'rlarini, Ozarbayjon shoirlari asarlarini va o'zbek tiliga o'girdi.

Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dosent ham edi. Shayxzoda asarlari dunyoning bir necha tillariga puxta o'girilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamurova, F., & Boyxurozov, D. (2024, December). U YILLAR O'RGANILGAN SAYXUNDA OG'IR... (Maqsud Shayxzoda). In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 12, pp. 235-239).



2. Mamurova, F., & Ruzmatova, Z. (2024, October). PHILOSOPHER OF THE POET, WISDOM. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 89-92).
3. Mamurova, F., & Aktamova, A. (2024, October). DEDICATION TO MAQSUD SHAYKHZODA. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 10, pp. 294-298).
4. Islomovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYXZODA–IKKI XALQ DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 1, pp. 263-266).
5. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
6. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-192).
7. Islomovna, M. F. (2024). O‘ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
8. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA- AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.